



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 5-fevral

VII-5-14-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limining 2024 yilda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha hududiy dasturi ijrosi yuzasidan hisoboti haqida

2024 yil Kattaqo'rg'on tumanida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha hududiy dastur ijrosini ta'minlash yuzasidan:

1. Aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish bo'yicha joriy yilning yanvar-dekabr oylarida jami 24,8 ming nafar aholini bandligi ta'minlandi.

2. Aholini tadbirkorlikga jalb qilish yuzasidantumanda yashovchi 3 594 nafar aholi tadbirkorlikka jalb qilindi. Biriktirilgan tijorat banklari va hokim yordamchilari bilan birgalikda, oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida 2 105 ta jismoniy va yuridik shaxslarga 40,2 mlrd so'm kreditlar ajratildi.

O'zini-o'zi band qilgan shaxslar uchun "Biznesga birinchi qadam" loyihasi orqali 5 mlrd so'm kreditlar yo'naltirildi.

377 ta kichik biznes va 718 ta yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi.

Yil davomida jami 13 995 nafar fuqarolar O'zini-o'zi band qilish bo'yicha ro'yxatga olindi.

Dehqon xo'jaliklari tashkil etish uchun 620 gektar yer uchastkalari auksion savdo tizimiga kiritilgan holda, fuqarolarga berildi.

Tumanda 1 147 nafar kasb-hunarga va 441 nafar fuqarolar tadbirkorlik ko'nikmasiga o'qitildi.

3. Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha tumanning Bog'ot mahallasida 2 ta 50 xonadonli ko'p qavatli uylar foydalanishga topshirildi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida 15 462 nafar bola qatnovi yo'lga qo'yilib, qamrov darajasi 61% yetkazildi.

4. Qishloq xo'jaligi va aholi tomorqasini rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston massividagi 1 837 ming gektar qishloq xo'jaligi yer maydonlarini qayta foydalanishga kiritildi. 60,5 ming aholi xonadonlarining tomorqa xo'jaliklarida 213,8 ming tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirildi. Aholi xonadonlarida qishloq xo'jaligi yo'nalishlarini rivojlantirish yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, 762 ta xonadonda yengil konstruksiyali va 402 ta xonadonda fundamentli issiqxonalar tashkil etildi.

Tumandagi 3 236 ta fuqarolar ipak qurti parvarishiga jalb qilindi.

Suv ta'minoti yetib borishi og'ir bo'lgan hududlarga 17 ta artezan quduqlar o'rnatildi.

6. Investitsiya va kichik sanoat loyihani amalga oshirishda Investitsiya dasturiga ko'ra 226 ta investitsiya loyihalarini tashkil etish hisobiga 1 273 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

7. Infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish maqsadidatumanda davlat va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan 69 km yo'llarni joriy ta'mirlandi, davlat ahamiyatidagi 63 km avtomobil yo'llaridagi vositalarini saqlash hamda mahalliy ahamiyatidagi 285 km avtomobil yo'llaridagi vositalarni saqlash ishlari amalga oshirildi.

Tumanda 1 ta tabiiy gaz tarmoqlari yangidan tortildi, 1,1 km tabiiy gaz tarmog'i ta'mirlandi, 37 100 dona suyultirilgan gaz ballonlari orqali 69,6 tonna yonilg'i mahsuloti aholiga tarqatildi.

Shuningdek, 235,5 km elektr tarmoqlari, 92 ta transformatorlar ta'mirlandi hamda 10 ta yangi transformatorlar va 56 ta xonadonga quyoshpanellari o'rnatildi.

8. Kambag'allik darajasi holati chora-tadbirlarga ko'ra, joriy yilning yakuni bilan 8,2 foizga pasaytirishga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 4-oktabrdagi 347-sonli qarori ijrosi hamda Prezident Administratsiyasining 2024-yil 30-yanvardagi 03-PA 2-666-sonli topshirig'iga muvofiq Kattaqo'rg'on tumanida aholi bandligini ta'minlash, daromadlarini oshirish orqali kambag'allik darajasini qisqartirish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni jadallashtirish maqsadida, xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i E.Raximovning 2024 yilda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha hududiy dasturi ijrosi yuzasidan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sektor rahbarlari (J.Nasriddinov, SH.Xolmirzayev, A.Ochilov, N.Razzakov), tuman hokimi o'rinbosarlari (N.Jo'lmatov, L.Raxmonov, S.Djumayeva, O.Shirinov, SH.Rashidov, SH.Isaqlulov), tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov) mas'ul korxona tashkilot rahbarlari bilan birgalikda:

- tumanda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar asosida tegishli choralar amalga oshirish;

- 2025-yilda tumanda kambag'allikni qisqartirish borasida aniq va natijali chora-tadbirlar amalga oshirish;

- yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash yuzasidan doimiy monitoring ishlarini olib borish;

- oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va dasturi doirasida imtiyozli kredit olish va aholi bandligini ta'minlash;

- “Biznesga birinchi qadam” loyihasi orqali fuqarolar bandligini ta'minlash;

- migrasiya natijasida chet eldan qaytib kelgan fuqarolarni tizimli ravishda ishga joylashtirish;

- migrasiya bo'yicha chet elda ishlash istagini bildirgan fuqarolarni zamonaviy kasblar hamda chet tillarga o'qitish bo'yicha tizimli ishlar tashkil etish;
- tumandagi yirik tashkilotlardagi bo'sh ish o'rinlariga ishsiz fuqarolarni jalb qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil qilish vazifalari topshirilsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga:

- kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi ishlar samaradorligi ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirish hamda amalga oshirilgan ishlar har chorak yakuni bilan tuman Kengashi sessiyasida tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi hisobotini tuman Kengashi sessiyada muhokama qilib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijro etishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev) hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari N.Jo'lmatov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH